

QADIMGI TIBBIYOT MAKTABLARI

Rahmonova Dilshoda Abdumalik qizi*Toshkent xalqaro Kimyo Universiteti Namangan filiali**1-bosqich Davolash ishi yo'nalishi talabasi**Rahmonovadilshoda1003@gmail.com**+998500753437***Annotatsiya**

Ushbu maqolada qadimgi tibbiyot maktablarining vujudga kelishi, rivojlanishining bosqichlari va ularni zamonaviy tibbiyotdagi o'zni tahlil qilingan. Misr, Rim, Xitoy, Yunon va yana boshqa tibbiyot maktablarini ilmiy farazlari, tajribalari va ularni amaliyotda qo'llanilganligi haqidagi aniq ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Qadimgi tibbiyot maktablari turli joylarda turlicha yo'nalishlarni yuksalganligi bilan muhim ahamiyatga ega bunga yaqqol misol, Misrda anatomiya bilan jarrohlik, Hind tibbiyotida profilaktika, Xitoyda energiya muvozanati, Yunon tibbiyotida ilmiy qarashlar, Rimda gigiena va umum jamoat salomatligi sohalari rivojlangan. Bu maqolada Gippokrat, Galen va yana boshqa ko'plab buyuk tabiblar va ularning ilmiy amaliyotlarini hamda ularning tibbiyotga oid nazariy bilimlari ayrim asarlarini ham tahlil qilinadi. Qadimgi tibbiyot maktablari organizmlarni o'rganishda va kasalliklarni kelib chiqishi asos sabablari, ularni davolash usullarini aniqlashga ilmiy asos bo'lib xizmat qilayotganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Gippokrat, Misr tibbiyot maktabi, Hind tibbiyot maktabi, Galen Imxotep, tibbiyot tarixi, Yunon tibbiyoti, Ayruveda, akupunktura

Abstract

This article analyzes the emergence, stages of development of ancient medical schools and their role in modern medicine. Accurate information about the scientific hypotheses, experiences of Egyptian, Roman, Chinese, Greek and other medical schools and their application in practice is provided. Ancient medical schools are important because they developed different directions in different places, a clear example of this is anatomy and surgery in Egypt, prevention in Indian medicine, energy balance in China, scientific views in Greek medicine, hygiene and general public health in Rome. This article analyzes Hippocrates, Galen and many other great physicians and their scientific practices, as well as some of their theoretical knowledge about medicine. It is highlighted that ancient medical schools serve as a scientific basis for studying organisms and determining the root causes of diseases and methods of treating them.

Keywords: Hippocrates, Egyptian school of medicine, Indian school of medicine, Galen Imhotep, history of medicine, Greek medicine, Ayurveda, acupuncture

Аннотация

В данной статье анализируются возникновение, этапы развития древних медицинских школ и их роль в современной медицине. Приводятся точные сведения о научных гипотезах, опыте египетских, римских, китайских, греческих и других медицинских школ, а также об их практическом применении. Древние медицинские школы важны, поскольку развивали различные направления в разных местах. Ярким примером этого являются анатомия и хирургия в Египте, профилактика в индийской медицине, энергетический баланс в Китае, научные взгляды в греческой медицине, гигиена и общественное здравоохранение в Риме. В статье анализируются Гиппократ, Гален и многие другие великие врачи, их научные практики, а также некоторые их теоретические знания о медицине. Подчеркивается, что древние медицинские школы служат научной основой для изучения организмов, определения первопричин заболеваний и методов их лечения.

Ключевые слова: Гиппократ, египетская медицинская школа, индийская медицинская школа, Гален, Имхотеп, история медицины, греческая медицина, аюрведа, акупунктура

Qadimgi tibbiyyot eng muhim fan sifatida qaralgan. Eng birinchi shifokorlar inson organizmidagi kasalliklarni diniy qarashlar va tabiat hodisalari, ruhiy omillarga bog'lab izohlab berishgan. Lekin vaqt o'tishi bilan bu nazariyalar o'rnini ilmiy qarashlar va ilmiy asoslar rivojlanish davri mobaynida egallab bordi. Shundan so'ng turli hududlarda o'ziga hos bo'lgan tibbiyyot maktablari tashlik topib bordi.

Qadimgi Misrda, Yunonda, Xitoyda, Hindistonda, Bobilda va Rimda tibbiyyot maktablari tibbiy ilm fanni rivojlanishiga asos bo'ladi. Bu maktablar hozirgi zamonaviy tibbiyyot maktablarining rivojlanishining ilk bosqichi hisoblanadi. Qadimgi maktablarning yutuqlari, uslublari va tajribalari kelajak tibbiyyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi Misr tibbiyyoti rivojlanish davri 3000-yillarda shakllangan, Imxotep Misrning eng mashhur tabiblaridan bo'lib shu vaqtlarda u Misr tibbiyyoti rivojiga o'z hissasini qo'shgan. Misr shifokorlari murdalarni mumiyolash orqali anatomiya haqida chuqur bilimga ega bo'lgan[1. Internet sayti.].

Bobil hamda Ossuriyada tibbiyyot diniy etiqod bilan chambarchas bog'langan edi, shunga qaramay amaliy shifokorlar – “asu” lar jarrohlik amaliyotlarini bajara olganlar. Asu - bu amaliy jarroh tabib hisoblangan. O'sha davridayoq tibbiyyot qonunlari

yani-tabib faoliyati, uning xatolari uchun oladigan jazolari, yutuqlari uchun beriladigan mukofotlar Xamurappi qonunlarida belgilab qo'yilgan edi[2. Internet sayti.].

Hind yani Ayurveda tibbiyoti maktabi deb nomlabgan bu tibbiyot maktabi qadimgi Hindiston diyorida tashlik etilgan bo'lib, unda profilakatika va jarrohlik keskin rivojlangan. Hind maktabi boshqa maktablardan farqi shundaki bu maktabda 300dan ortiq operatsiya turlari amalga oshirilgan, 120dan ortiq jarrohlik uchun keraklik asbob anjomlar mavjud bo'lgan. Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan bilish mumkinki qadimgi Hind maktabi rivojlanishdan bir zum to'xtab qolmagan. Qadimgi Xitoy tibbiyot maktabida esa massaj o'simlik dorilari yani tabiiy giyohlar yordamida davolash va pulsodiagnostika, akupunktura yo'nalishlari orqali kassaliklarini bartaraf etish rivojlangan. Qadimgi Xitoy tabiblari pulsodiagnostika orqali aniq tashxis qo'yoshni yaxshi o'zlashtirganlar. Xitoy tibbiyotining asosiy manbasi- "Sariq imperatorning ichki kitobi" hisoblangan bu orqali inson salomatligi "yin" hamda "yang" energiyalariga bog'liq deb hisoblangan[3. Internet sayti.].

Yunon tibbiyoti haqida gap ketar ekan ko'z oldimizga tibbiyot otasi Gippokrat (miloddan avvalgi 5 asr) kelishi turgan gap, Yunon tibbiyoti ham boshqa maktablardan qolmagan tarzda o'z rivojini yuqori javhalarda ko'rsatib bordi. Gippokrat kasalliklarning tabiiy kelitirib chiqaruvchi omillar, shu bilan birga sabablarini o'rgangan. U qon, balg'am, safro, qora safro manashu to'rtta suyuqlik nazariyasini ilgari surgan va buning ustida ko'plab izlanishlar olib borgan. Buyuk tabib shifokorlar axloqiga oid mashxur "Gippokrat qasamyodini" yaratgan.

Rimda qadimdan gigiyena va umumjamoat salomatliga e'tibor kuchli bo'lgan Rim tabiblari ham asosan mana shu yo'nalishlarda izlanishlar olib borganlar va bu sohalarda ular ko'plab yutuqlarga ega bo'lgan. Rim tibbiyotiga o'zining ulkan xissasini qo'shgan tabib Galen - anatomiya va fizilogiyani tizimlashtirishga muaffaq bo'lgan. Bundan tashqari uning asarlari G'arb tibbiyotining 1500 yillik asosini tashlik etgan

Xulosa qilib aytganda ajdodlarimiz bizlarga ilmiy me'ros qoldirish ishtiyoqidan bir zum to'xtab qolmaganlar va ularning bu xarakatlari bekor ketmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Qadimgi tibbiyot maktablari insoniyat tarixida muhim ahamiyat kasb etib sog'lomlashtirish, profilaktika, diagnostikaning poydevori xisoblanadi. Yuqorida keltirib o'tilgan buyuk siymolarning asarlari va ularning ilgari surgan g'oyalari, alamiy tajribalari xozirgi zamonaviy tibbiyotda tutgan o'rni beqiyosdir.

Misr tibbiyoti jarrohlik hamda odam anatomiyasini, Xitoy tibbiyoti esa energiya muvozanatini, ilmiy tahlil va gigiyena tizimini esa yunon va rim tibbiyoti, hind tibbiyoti esa parhezni asoslay olgan. Va bu qarashlar xozirga kelib ham o'z isbotlari to'g'ri ekanligini yoqlab kelmoqda.

Ushbu qadimiy tibbiyot maktablari nafaqat ilmiy jihatdan o'rnak bo'lib kelmoqda balki axloqiy taraflama ham, biz yosh shifokorlarga o'rnakdir, bunga Gippokrat

qasamyodi yaqqol misol bo'la oladi. Qadimdan tabiblarimiz o'z ishlari masuliyat va mehnat talab etganligini his etganlar va shu jumladan ular o'z ishlariga va burchlariga sodiq tarzda faoliyat olib borganlar. Bundan ko'rinib turibdiki Qadimdan tibbiyotga e'tibor va talab kuchli ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://abiturtest.uz/mavzular/anatomiya-fanining-qisqacha-tarixi/>
1. <https://elibrary.sammu.uz/uploads/books/Uzbek%20tilidagi%20adabiyotlar/Filosofiya/Tibbiyot%20tarixi>
2. https://translated.turbopages.org/proxy_u/ru-uz.ru.e23650aa-69258118-03104015-74722d776562/https/ru.wikipedia.org/wiki